
CHET ELDAGI AN'ANAVIY KAM QAVATLI TADBIRKORLIK UYLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Abduraxmonov Sevinchbek Baxtiyor o'g'li
Samarqand Davlat Texnika universiteti
E-mail: sevinchbek19042003@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22093417

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el mamlakatlarida an'anaviy kam qavatli tadbirkorlik uylarining tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Unda mazkur turdagi uy-joylarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, hududiy va me'moriy omillar yoritilgan. Turli mamlakatlar tajribasi asosida turar joy va tadbirkorlik faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvi, binolarning funksional-rejaviy yechimlari, mahalliy me'moriy an'analar hamda zamonaviy shaharsozlik talablari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kam qavatli tadbirkorlik uylarining rivojlanish bosqichlari, ularning zamonaviy shakllari va kichik biznesni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda zamonaviy, funksional va hududiy sharoitlarga mos kam qavatli tadbirkorlik uylarini loyihalashda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kam qavatli uylar, tadbirkorlik uylari, an'anaviy me'morchilik, tarixiy rivojlanish, xorijiy tajriba, turar joy, kichik biznes, shaharsozlik, me'moriy-rejaviy yechim, funksional zonalashtirish, mahalliy an'analar, barqaror rivojlanish.



3.2



Rasm. 1 Gerachi, Reggio Kalabriya shahridagi tarixiy ko'cha frontini shakllantirgan burchakli kam qavatli bino ko'rinishi. ***Manba:*** *Cliff Moughtin, Urban Design: Street and Square, Architectural Press, 2003.*

Xorij mamlakatlarida tadbirkorlik uylari hunarmand, savdogar, novvoy, tegirmonchi, tikuvchi, temirchi va mayda ishlab chiqaruvchilarning kundalik hayoti bilan bevosita bog'langan. Uy tarkibidagi old xona, pastki qavat yoki ko'chaga qaragan qism savdo, buyurtma qabul qilish, mijoz bilan uchrashish yoki mahsulot namoyishiga xizmat qilgan. Ichki yoki yuqori qism esa oila yashashi, mahsulot saqlanishi va ishlab chiqarishning nisbatan yopiq bosqichlari uchun ishlatilgan Rasm. 1 [24] . Sanoatgacha bo'lgan davrda bunday uylarning asosiy belgisi yashash va daromad topish jarayonlarining bir mulk doirasida tashkil etilganidir. Uy egasi, oila a'zolari va ayrim hollarda yordamchi ishchilar bir binoda yashab, shu binoning turli qismlarida ishlab, mahsulotni tayyorlagan yoki sotgan. Bu holat uy-joyni oddiy maishiy bino emas, balki oilaviy iqtisodning ishlab chiqarish va ayirboshlash bilan bog'langan kichik fazoviy tizimi sifatida baholashga asos beradi [24]. Xorijiy tajribada tadbirkorlik uylari alohida o'rin egallaydi. Bunday uyda ko'chaga qaragan qism savdo yoki xizmat ko'rsatishga xizmat qilgan, yashash maydoni esa orqa qismda yoki yuqori qavatda joylashgan. Bu reja mantiqi ko'cha, bino fasadi, kirish qismi va savdo

maydonini yagona iqtisodiy aloqa chizig‘iga aylantirgan Rasm. 2 [25] . Yaponiya machiya uylari, Janubi-Sharqiy Osiyo savdo uylari va Yevropa hunarmand turar-joylarida ko‘cha bilan bog‘langan faol qism muhim arxitekturaviy belgi bo‘lgan. Bunday uylarning tashqi qismi xaridor bilan aloqa o‘rnatgan, ichki qismi esa oilaviy yashash, mahsulot tayyorlash yoki saqlash jarayonlarini qabul qilgan. Reja tuzilishidagi bu ikki yo‘nalish uy ichidagi shaxsiy hayot bilan tashqi iqtisodiy aloqani bir-biriga aralashtirmasdan boshqarishga xizmat qilgan [25]. Yashash va mehnat birligining tarixiy ildizlari faqat shahar savdo ko‘chalari bilan cheklanmagan. Qishloq hududlarida ham uy, ombor, kichik ustaxona, hayvon saqlash joyi, qayta ishlash qismi bir mulkiy tarkibda joylashgan. Bunday tashkil etilish mehnatning mavsumiyligi, oila mehnati, mahalliy xomashyo va mahsulotni yaqin iste’molchiga yetkazish zarurati bilan bog‘langan [24]. Tarixda tadbirkorlik uylarida xonalar ko‘pincha bitta qat’iy vazifa bilan chegaralanmagan. Bir xona kunning turli vaqtida yashash, ishlash, mahsulot tayyorlash, buyurtma qabul qilish yoki saqlash vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan. Bu xususiyat keyingi davrlarda home-based business tushunchalariga asos bo‘lgan moslashuvchan uy-joy mantiqining dastlabki ko‘rinishi sifatida baholanadi [23]. Chet el tajribasidagi bunday uylar o‘zining shakli, materiali va reja ko‘rinishi bo‘yicha bir-biridan farq qilgan, lekin ularni bog‘laydigan umumiy jihat yashash va iqtisodiy faoliyatning bir binoda qo‘shilishidir. Bu qo‘shilish kasb turiga qarab turlicha ko‘rinish olgan: savdogar uyida ko‘cha bilan aloqa kuchli bo‘lgan, hunarmand uyida ish xonasi yoki asbob-uskunalar joylashuvi muhim bo‘lgan, qishloq uyida esa ishlab chiqarish va saqlash qismlari xo‘jalik jarayoniga moslashgan. Shu asosda xorijiy tajribadagi an’anaviy kam qavatli tadbirkorlik uylari mehnat turi, ko‘cha bilan aloqa va uy ichki tuzilishiga ko‘ra shakllangan arxitekturaviy hodisa sifatida o‘rganiladi [23].


3.36

Sanoatgacha bo‘lgan davrda uy-ustaxona, uy-do‘kon va hunarmand turar-joylari kichik ishlab chiqarishning asosiy arxitekturaviy shakllaridan biri bo‘lgan. Bunday binolarda mehnat jarayoni alohida korxona yoki mustaqil ishlab chiqarish binosiga ajralmagan, balki xonadonning yashash tartibi bilan birga tashkil etilgan. Uy tarkibidagi xona, do‘kon qismi, saqlash joyi va xizmat ko‘rsatish maydoni oilaviy mehnatning kasbiy xususiyatiga qarab ishlatilgan [24]. Ingliz qishloqlariga oid XVII–XVIII asr hujjatlarida temirchi, to‘quvchi, tikuvchi, novvoy, tegirmonchi, do‘kondor, qassob va inn-holder kabi kasb egalari o‘z uy-mulki tarkibida yashab, ishlab va mahsulot saqlagani ko‘rsatiladi. Ularning uylarida to‘rt-sakkiz xona mavjud bo‘lib, kamida bittasi maxsus ish joyi yoki yashash bilan birga mehnat faoliyatini qabul qilgan ikki vazifali xona sifatida ishlatilgan Rasm. 3 [24]. Uy-ustaxona shaklida reja tuzilishi avvalo kasbning texnologik talablariga moslashgan. To‘quvchi uchun yorug‘lik tushadigan xona, novvoy uchun pishirish joyi, temirchi uchun og‘ir asbob-uskunaga mos ish qismi, tikuvchi uchun buyurtma qabul qilish va tayyor mahsulot saqlash joyi zarur bo‘lgan. Shu sabab sanoatgacha uylar yagona maishiy qolip asosida emas, balki ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligi, xomashyo harakati va mijoz bilan aloqa darajasiga ko‘ra shakllangan [24]. Uy-do‘kon shaklida ko‘chaga qaragan qism iqtisodiy

faoliyatning eng faol nuqtasi hisoblangan. Bu qismda tovar namoyishi, buyurtma qabul qilish, qisqa savdo aloqasi yoki xizmat ko‘rsatish amalga oshirilgan. Yashash qismi esa ko‘pincha orqa tomonda, yuqori qavatda yoki savdo maydonidan nisbatan ajratilgan ichki qismda joylashgan Rasm. 4[25] . Do‘kon va turar-joy birlashgan uyda fasad oddiy tashqi devor vazifasi bilan cheklanmagan. Eshik, deraza, peshtaxta, soyali old qism va ko‘cha bilan bog‘langan kirish savdo jarayonining ko‘rinadigan qatlamini hosil qilgan. Bunday yechim bino ichidagi xususiy yashash tartibi bilan ko‘cha bo‘yidagi iqtisodiy aloqani bir-biriga bevosita to‘qnash keltirmasdan boshqarishga xizmat qilgan [25]. Hunarmand turar-joylarida ish joyi ba’zan alohida xona sifatida, ba’zan esa yashash xonasining ma’lum qismi sifatida tashkil etilgan. Bir xonaning turli vaqtda yashash, ishlab chiqarish, ta’mirlash, mahsulot yig‘ish yoki buyurtma qabul qilishga xizmat qilishi sanoatgacha bo‘lgan uylarning moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Bu moslashuvchanlik uy-joy maydonining kichikligi, oilaviy mehnatning muntazamligi va alohida tijorat binosiga ehtiyojning cheklanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan [23]. Sanoatgacha davrdagi uy-ustaxonalarda mahsulot saqlash joyi reja tuzilishining muhim qismi bo‘lgan. Xomashyo, yarim tayyor mahsulot, asbob-uskunalar va tayyor buyumlar yashash xonalariga to‘liq aralashib ketmasligi uchun ular alohida javon, orqa xona, yuqori qism yoki yordamchi maydonda saqlangan. Saqlash joyining joylashuvi ish jarayonining tezligi, mahsulotning og‘irligi, yong‘in xavfi va xaridor bilan aloqa tartibiga qarab belgilangani ehtimol qilinadi [24]. Savdo bilan bog‘langan xonadonlarda mijozning uy ichiga kirish darajasi qat’iy boshqarilgan. Ayrim kasblarda mijoz faqat old qismda to‘xtagan, ayrim xizmat turlarida esa u ish xonasigacha kirishi mumkin bo‘lgan. Bu farq uy ichidagi shaxsiy hayot, mahsulot tayyorlash jarayoni va savdo aloqasi o‘rtasidagi chegarani kasb turiga qarab o‘zgartirgan [25]. Qishloq muhitidagi hunarmand uylari shahardagi tadbirkorlik uylaridan farqli ravishda ko‘proq xo‘jalik jarayonlari bilan bog‘langan. Unda kichik ustaxona, ochiq xo‘jalik maydoni, ombor, hayvon saqlash qismi yoki mahsulotni qayta ishlash joyi bitta mulk tarkibida joylashgan. Bunday uylar bozor ko‘chasiga to‘liq bog‘lanmagan bo‘lsa ham, mahalliy iste’molchi, buyurtma asosidagi xizmat va mavsumiy ishlab chiqarish bilan aloqador bo‘lgan Rasm. 5[24] . Shahar muhitidagi tadbirkorlik uylarida esa ko‘cha bilan bevosita aloqa asosiy ustunlik vazifasini bajargan. Savdo qismi ko‘rinadigan joyda joylashgani uchun bino fasadi xaridor oqimi, mahsulot tanishtirish va xizmat ko‘rsatish tezligiga ta’sir qilgan. Uy ichki qismi esa oilaning yashashi, mahsulot tayyorlash va

Rasm. 3 Tor tarixiy ko‘cha, zich piyodalar oqimi va savdo-xizmat binolari fasadlari aks etgan shahar muhiti. ***Manba:*** *Cliff Moughtin, Urban Design: Street and Square, Architectural Press, 2003.*



Rasm. 5 Shahar ko‘chasida savdo-xizmat binolari, do‘kon vitrinalari va ko‘cha frontining uzluksiz qurilishi aks etgan ko‘rinish. ***Manba:*** *Cliff Moughtin, Urban Design: Street and Square, Architectural Press, 2003.*



5.20

saqlash jarayonlarini ko‘cha shovqinidan nisbatan ajratilgan tartibda davom ettirishga imkon bergan [25]. Sanoatgacha bo‘lgan tadbirkorlik uylarida mehnatning oilaviy boshqaruvi muhim o‘rin tutgan. Oila a’zolari ishlab chiqarish, savdo, saqlash, buyurtma qabul qilish va maishiy yumushlarni bitta bino tarkibida ketma-ket bajarib borgan. Bu tartib kasbiy faoliyatni xonadon iqtisodi bilan bog‘lagan va uy-joyning ichki tuzilishini daromad topish jarayoniga moslashtirgan [23].

Sanoatlashuv davri xorijiy tajribada yashash va mehnat birligi tarixidagi asosiy burilish bosqichi sifatida baholanadi. Bu davrda ishlab chiqarish jarayoni uy-ustaxona va uy-do‘kon doirasidan chiqib, fabrika, sex, ombor va maxsus ishlab chiqarish binolari bilan bog‘langan alohida tizimga aylandi. Avval oilaviy mehnat asosida yuritilgan kichik ishlab chiqarish shakllari yirik texnologik quvvat, ishchi kuchi va transport aloqalariga tayangan sanoat modeli bilan almasha boshladi [23]. Ishlab chiqarishning uy ichidan tashqariga ko‘chishi turar-joyning vazifasini ham o‘zgartirdi. Sanoatgacha bo‘lgan davrda uy yashash, ishlab chiqarish, saqlash va savdo jarayonlarini birlashtirgan bo‘lsa, sanoatlashuv davrida u ko‘proq maishiy hayot uchun ajratilgan bino sifatida talqin qilina boshladi. Bunday o‘zgarish uy-joy rejasidan maxsus ish xonasi, mahsulot saqlash joyi va mijoz bilan aloqa maydonining qisqarishiga olib keldi [25]. Sanoat korxonalari mehnatni markazlashtirilgan binolarga jamlagani uchun uy va ish joyi o‘rtasida yangi masofa paydo bo‘ldi. Ishchi endi alohida ishlab chiqarish hududida mehnat qiladigan shaxs sifatida shakllandi. Bu jarayon kundalik hayot tartibida ishga borish, ishdan qaytish va qatnov vaqtini turar-joy tizimining ajralmas omiliga aylantirdi Rasm. 6 [36]. Me’moriy jihatdan bu ajralish bino vazifalarining torayishi bilan ifodalandi. Turar-joy binosi ko‘proq ovqat tayyorlash, uxlash, dam olish va oilaviy hayotga xizmat qiladigan xonalar yig‘indisi sifatida loyihalana boshladi. Ishlab chiqarish binosi esa energiya manbai, yirik jihozlar, yuk tashish, xomashyo saqlash va ishchi oqimini qabul qiladigan mustaqil arxitekturaviy turga aylandi [36]. Sanoatlashuv shahar hududining funksional tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Turar-joy, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish qismlari oldingi aralash mayda tuzilmalardan farqli ravishda alohida hududlar sifatida ko‘rila boshladi. Bunday yondashuv shahar makonida vazifalarning ajralishini kuchaytirib, kam qavatli aralash funksiyali uylarning tarixiy rolini chekladi [37]. Transport tizimining rivojlanishi uy va ish joyi o‘rtasidagi ajralishni yanada mustahkamladi. Temiryo‘l, tramvay, keyinchalik avtomobil qatnovi ishchi kuchining yashash hududidan ishlab chiqarish hududiga muntazam harakatlanishini ta’minladi. Shu bilan turar-joyning joylashuvi endi faqat oila ehtiyoji bilan emas, balki ish joyigacha bo‘lgan masofa va qatnov imkoniyati bilan




Figure 5. Aerial view (a) and ground floor plan (b) of a northern courtyard lane house (brick and timber construction). From Lü, Rowe, and Zhang (2001).1

Figure 6.
Exterior of townhouses in different styles:
(a) Verdun Gardens, Shanghai;
(b) Shanghai Siming Village;
(c) Tianjin Racecourse Villa;
(d) Dalian Gorgie Road Townhouse.
From Lü, Rowe, and Zhang (2001).

Rasm. 6 ***Rasm.*** *Xitoydagi hovlili va qatorli turar-joylarning yuqoridan ko‘rinishi, birinchi qavat reja tuzilmasi hamda Shanghai, Tianjin va Daliandagi turli fasad namunalari.* ***Manba:*** *Lü, Rowe va Zhang, 2001.*

Rasm. 8 Beijing Qian San Men ko‘p qavatli turar-joy majmuasining ko‘cha bo‘ylab joylashuvi va standart qavat reja tuzilmasi. ***Manba:*** *Lü, Rowe va Zhang, 2001.*

ham belgilanadigan bo‘ldi [37]. Sanoatlashuv davridagi yangi ishlab chiqarish binolari uyga asoslangan mehnat shakllaridan hajm, shovqin, texnologiya va sanitariya talablari bo‘yicha keskin farq qilgan. Katta sexlar, tutun chiqaruvchi korxonalar, ombor maydonlari va yuk tashish yo‘llari turar-joydan ajratilgan joylashuvni talab qilgan. Bu talablar uy ichidagi kichik ishlab chiqarishdan alohida sanoat hududlariga o‘tishning me’moriy asosini kuchaytirgan Rasm. 7 [36]. Uy va ish joyining ajralishi ijtimoiy hayotda ham yangi me’yorlarni yuzaga keltirdi. Uy asta-sekin ishlab daromad topiladigan joy emas, balki tashqaridagi mehnatdan keyingi maishiy tiklanish makoni sifatida qabul qilindi. Bu tasavvur uy ichida davom etgan kichik xizmat, tikuvchilik, ta’mirlash, buyurtma bajarish va oilaviy savdo shakllarini ko‘proq ko‘zga tashlanmaydigan faoliyatga aylantirdi [26]. Shaharsozlikda funksional ajralish ko‘cha hayotining xarakterini ham o‘zgartirdi. Sanoatgacha bo‘lgan uy-do‘konlarda ko‘cha savdo, buyurtma va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘langan faol iqtisodiy qatlam bo‘lgan. Sanoatlashuvdan keyingi turar-joy hududlarida esa ko‘cha ko‘proq harakat, kirish-chiqish va transport oqimini o‘tkazish vazifasi bilan bog‘lana boshladi [37]. Bunday ajralish aralash funksiyali uylarning butunlay yo‘qolishini anglatmagan. Ko‘plab shaharlarda do‘kon ustidagi turar-joylar, xonadon ichidagi mayda xizmatlar, oilaviy savdo va kichik ustaxonalar davom etgan. Ular endi shahar rivojining asosiy modeli emas, balki sanoat ishlab chiqarishi va mono-funksional rejalashtirish fonida saqlanib qolgan tarixiy qatlam sifatida ko‘rilgan [23]. XX asr boshlariga kelib uy va ish joyining ajralishi rejalashtirish, sanitariya, xavfsizlik va turar-joy me’yorlarida mustahkamlandi. Turar-joy muhitida osoyishtalik, gigiyena va oilaviy hayotga qulaylik asosiy mezon sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hududlari shovqin, yuk harakati va texnologik talablar bilan bog‘langan maxsus zonalar sifatida ajratildi. Shu tariqa tarixiy workhome va shop-house tajribasi yangi shahar modelida cheklangan, qayta talqin qilingan va qisman yashirin shakllarda davom etgan Rasm. 8 [25]. Sanoatlashuv davrining bu o‘zgarishlari keyingi home-based business tushunchalarini tushunish uchun muhim tarixiy zamin yaratadi. XX asrda uyda ishlashga qiziqish qayta kuchayganida, tadqiqotchilar uni sanoatlashuv davrida uzilgan yashash va mehnat aloqasining yangi sharoitdagi qayta tashkil etilishi sifatida ko‘ra boshladilar. Keyingi bosqichda ushbu jarayon zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va kichik tadbirkorlikning uy-joyga qayta kirib kelishi bilan bog‘liq holda rivojlandi [25].



Figure 9. Perspective view (a) and standard floor plan (b) Beijing Qian San Men High Rise Residence. From Lü, Rowe, and Zhang (2001).



Figure 8. Beijing Happiness Village Small Area Exterior Porch House. From Lü, Rowe, and Zhang (2001).

XX asrda yashash va mehnat birligi sanoatgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy uy shakli sifatida emas, balki sanoatlashuvdan keyin qayta anglangan arxitekturaviy hodisa sifatida ko‘rila boshladi. Bu davrda uyda ishlash mustaqil kasb egalari, ijodkorlar, dizaynerlar,

kichik xizmat ko‘rsatuvchilar va yakka tadbirkorlar faoliyati bilan bog‘liq holda yangi mazmun oldi. Uy-joy tarkibida ish jarayonining qayta paydo bo‘lishi tarixiy workhome an’anasini zamonaviy iqtisodiy sharoitda qayta nomlash zaruratini yuzaga keltirdi [25].

Yashash va ishlash birligi atamasi XX asrning ikkinchi yarmida keng muomalaga kira boshladi. Frances Holliss talqinida bu atama 1970-yillarda SoHo, New Yorkdagi loft ishlanmalarini bozorga chiqarish jarayonida shakllangan va ko‘pincha zamonaviy turmush tarzi belgisi sifatida talqin qilingan Rasm. 9. Loft tipidagi sobiq sanoat yoki ombor binolari yashash, ijodiy mehnat, buyurtma bajarish va mijoz bilan qisqa uchrashuvga moslashtirilgan. Keng ochiq reja, baland shift, tabiiy yorug‘lik va ichki bo‘linishlarning nisbatan erkinligi bunday joylarni san’atkorlar va mustaqil kasb egalari uchun qulay qilgan. XX asrda workhome tushunchasining ilmiy qayta tiklanishi uy va ish joyini alohida kategoriyalar sifatida ko‘rgan sanoat davri qarashlariga tanqidiy munosabat bilan bog‘liq. Holliss workhome atamasini longhouse, shop-house, studio-house, do‘kon ustidagi turar-joy va zamonaviy birliklarini qamrab oluvchi umumiy tushuncha sifatida ishlatadi. Bu yondashuv uyda ishlashni tasodifiy holat emas, balki arxitektura tarixida uzluksiz davom etgan bino turi sifatida ko‘rishga imkon beradi [23]. XX asr oxirida uyga asoslangan tadbirkorlik tushunchasi kichik biznes va shahar iqtisodi tadqiqotlarida alohida mavzuga aylandi. Sayers bu tushunchani egasining turar-joyida yoki turar-joyidan turib yuritiladigan korxona sifatida izohlaydi. Bu ta’rif bino turidan tashqari tadbirkorlikning tashkiliy shaklini ham qamrab olgani uchun live and work tushunchasiga nisbatan kengroq iqtisodiy mazmunga ega [26]. 1980-yillardan boshlab uyga asoslangan tadbirkorlik Kanada, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida o‘rganila boshlandi. Ushbu yo‘nalishning o‘sishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moslashuvchan ish tartibi, iqtisodiy liberallashuv, ish bilan bandlikdagi o‘zgarishlar va tijorat binosi ijarasini kamaytirish ehtiyoji bilan bog‘langan. Uyda tadbirkorlik yuritish shaxsiy mulk, oilaviy vaqt, xarajatlarni qisqartirish va boshlang‘ich biznes xavfini boshqarish imkoniyatlari bilan izohlangan [26]. Colin Mason, Sara Carter va Stephen Tagg home-based businessni ko‘rinmas biznes sifatida tavsiflaydi. Bunday korxonalar ko‘pincha rasmiy statistikada alohida ajratilmagan, iqtisodiy siyosatda yetarli hisobga olinmagan va kichik biznes sektori ichida kam ko‘rinadigan qatlam sifatida qolgan. Bu yondashuv uyga asoslangan tadbirkorlikni oddiy qo‘shimcha daromad shakli emas, balki bandlik, mahalliy iqtisod va kichik biznes rivojiga ta’sir qiluvchi mustaqil faoliyat turi sifatida ko‘rishga olib kelgan [27].XX asr oxiridagi tadqiqotlarda uyda ishlovchi xodim bilan uyda biznes yurituvchi tadbirkor o‘rtasidagi farq ham aniqlashtirildi. Uyda ishlovchi xodim tashqi tashkilotga bog‘langan mehnat tartibida faoliyat yuritishi mumkin, uyga asoslangan tadbirkor esa mijoz,

Rasm. 9 Van B turar-joy loyihasida ko‘p funksiyali “plug-in” tizimi, xonadon rejalari, dasturiy zonalash va aksonometrik yechimlar ko‘rsatilgan. ***Manba:*** *UNStudio, Van B, 2018.*



Figure 12. Multi-Functional Plugin System.
Note: UNStudio (2018), *Van B*, from
https://www.unstudio.com/en/page/14624/van-b.




Figure 13. Simple plans and diagrams.
Note: UNStudio (2018), *Van B*, revised from
https://www.unstudio.com/en/page/14624/van-b.

xarajat, ish vaqti, xizmat turi va rivojlanish yo‘nalishini mustaqil boshqaradi. Bu farq arxitekturaviy jihatdan ham muhim, chunki tadbirkorlik faoliyati uyda ish xonasi, saqlash joyi, hujjat yuritish qismi yoki qisqa mijoz aloqasi uchun ajratilgan maydonni talab qilishi mumkin [27]. Veronique Schutjens va hammualliflarining Niderlandiya shahar mahallalari bo‘yicha tadqiqoti home-based businessning turar-joy bilan bog‘lanishini vaqtinchalik boshlang‘ich holat sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda ko‘plab korxonalar uyda boshlangan va keyinchalik ham uy, xonadon xususiyatlari, mahalla muhiti hamda oilaviy vazifalar bilan bog‘liq holda shu joyda qolgan. Uy maydoni, xonalar soni, mulk shakli, moslashtirish imkoniyati va kichik farzandlarga qarash kabi omillar biznesning uyda davom etishiga ta’sir qilgan [28]. XX asr oxirida uy-joy rejasiga nisbatan talab ham o‘zgara boshladi. An’anaviy yashash xonalaridan tashqari kichik ish xonasi, yozuv stoli joylashadigan burchak, hujjat saqlash joyi, telefon va kompyuter uchun ajratilgan maydon zarur bo‘lib bordi. Uy-joy faqat uxlash, ovqatlanish va dam olish vazifalariga xizmat qiladigan bino emas, balki kam ta’sirli kasbiy faoliyatni qabul qila oladigan moslashuvchan muhit sifatida talqin qilindi Rasm. 10 [28]. Tadbirkorlik uylari XX asrda eski sanoat binolarini qayta foydalanishga kiritish bilan ham bog‘landi. Bunday holatlarda bino qobig‘i ishlab chiqarish davridan qolgan bo‘lsa-da, ichki makon yashash, ijodiy mehnat va kichik tadbirkorlik ehtiyojlariga moslashtirilgan. Bu jarayon arxitekturada mavjud bino fondini yangi iqtisodiy vazifaga moslash, ichki makonni erkin tashkil etish va uy chegarasini qayta belgilash imkoniyatini ko‘rsatgan [25]. Home-based businessning XX asrdagi rivojlanishi faqat yirik shahar markazlari bilan cheklanmagan. Shahar chekkasi va qishloq hududlarida ham uyga asoslangan tadbirkorlik ijara xarajatlarini kamaytiradigan, oilaviy vazifalar bilan moslashadigan va mahalliy talabga xizmat qiladigan kichik faoliyat turi sifatida saqlangan. Bu holat uy-joyning joylashuvi, ichki hajmi, aloqa infratuzilmasi va egasining mehnat tartibi tadbirkorlik imkoniyatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan [29].

XXI asrda uyga asoslangan tadbirkorlik raqamli aloqa, masofadan ishlash va kichik biznesning moslashuvchan shakllari bilan yangi rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu bosqichda uy-joy faqat maishiy yashash muhiti sifatida emas, balki ish, aloqa, buyurtma qabul qilish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv jarayonlarini qabul qila oladigan ko‘p vazifali bino sifatida talqin qilina boshladi. Raqamli texnologiyalar uy ichidagi tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, uyga asoslangan bizneslarning barchasi to‘liq onlayn faoliyatga aylangan deb baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas [30]. Darja Reuschke va Colin Mason tadqiqotida home-based business raqamli savdo bilan bog‘lanishi mumkinligi ko‘rsatiladi, lekin ko‘plab uyga asoslangan bizneslar xizmat, mahsulot tayyorlash, buyurtma bajarish va mahalliy mijozlar bilan ishlashga tayanadi. Elektron savdo ayrim tadbirkorlar uchun bozor doirasini kengaytiradi, lekin u turar-joy ichidagi ish joyi, mahsulot saqlash, xizmat ko‘rsatish va oilaviy hayot bilan bog‘liq fazoviy ehtiyojlarni yo‘q qilmaydi. Shu sabab XXI asr tajribasida raqamli iqtisodiyot uy-joyning tadbirkorlikka moslashishini kuchaytiruvchi omil sifatida qaraladi [30]. Zamonaviy home-based



Figure 17. Studio in the living room. (Copyright by Akira Nakamura)
Note: ROOVICE (2021), *Zushi House*, from https://www.roovice.com/works/14356.

Rasm. 10 Zushi House loyihasida yashash xonasi tarkibida tashkil etilgan studiya-ish maydoni ko‘rinishi. ***Manba:*** *ROOVICE, Zushi House, 2021.*




Figure 27. Simple plans and diagrams.
Note: Crossboundaries (2018), *CHINA House Vision No. 8 Pavilion*, revised from http://www.crossboundaries.com/zh/portfolio-item/china-house-vision/.

Rasm. 11 CHINA House Vision No. 8 Pavilion loyihasida oddiy reja, funksional zonalash va aksonometrik yechimlar orqali yashash hamda ishlash makonining



Atelier Bow Wow's home-based studio, Tokyo

Rasm. 12 Tokio shahridagi Atelier Bow-Wow uy-studiyasida yashash va ijodiy mehnat jarayonlari bir makonda tashkil etilgan interyer ko'rinishi. ***Manba:*** *Atelier Bow-Wow's home-based studio, Tokyo.*

business uchun uy ichidagi ish joyi har doim alohida ofis ko'rinishida bo'lishi shart emas. Ayrim faoliyatlar kompyuter, telefon va internet aloqasi bilan cheklansa, boshqalari mahsulot saqlash, jihoz joylashtirish, buyurtma qadoqlash yoki qisqa muddatli mijoz aloqasini talab qiladi. Bunday farqlar turar-joy rejasida shovqinsiz ish maydoni, tabiiy yoritish, aloqa infratuzilmasi, saqlash joyi va oilaviy hayotdan nisbatan ajratilgan kichik ish zonasini ko'zda tutishni zarur qiladi Rasm. 11 [29]. XXI asrda moslashuvchan uy-joy tushunchasi home-based business bilan bevosita bog'liq holda talqin qilina boshladi. Moslashuvchan uy-joy oila tarkibi, mehnat shakli, texnologik ehtiyoj va kundalik turmush o'zgarishlariga moslasha oladigan turar-joy tizimini anglatadi. Bunday yondashuvda xona faqat oldindan belgilangan bitta vazifa bilan cheklanmay, turli vaqtda yashash, o'qish, masofadan ishlash, xizmat ko'rsatish yoki kichik tadbirkorlik faoliyatiga moslasha oladi [36]. Pandemiya davri moslashuvchan uy-joy muammosini yanada aniq ko'rsatdi. Ko'plab xonadonlarda mehmon xonasi, yotoqxona, oshxona yoki balkon vaqtinchalik ish joyiga aylantirildi, lekin bunday moslashuv turar-joy rejasining har doim ham mehnat faoliyatiga tayyor emasligini ochib berdi. Dingran Chen tadqiqotida home working va flexible housing bog'lanishi zamonaviy uy-joyning yashash, ishlash va sog'lom muhit talablarini birgalikda qabul qilishi zarurligi bilan izohlanadi Rasm. 12 [36]. Moslashuvchanlik faqat transformatsiyalanuvchi mebel bilan cheklanmaydi. U turar-joyning uzoq muddatli foydalanish imkoniyati, xonalar vazifasini o'zgartirish qulayligi, ish jarayonini oilaviy hayotdan nisbatan ajratish va texnologik yangilanishlarga moslashish qobiliyatini ham qamrab oladi. Uyga asoslangan tadbirkorlik uchun bunday xususiyatlar faoliyat hajmi kichik bo'lgan davrda ham, biznes asta-sekin kengaygan holatda ham muhim ahamiyatga ega [36]. Singapore tajribasida Home Office Scheme uyga asoslangan tadbirkorlikni rasmiylashtirish va uni turar-joy muhiti bilan moslashtirishga qaratilgan muhim model sifatida ko'riladi. Ushbu dastur turar-joy manzilida biznes yuritishga ruxsat berib, boshlang'ich tadbirkorlar uchun ofis ijarasi, jihozlash va qatnov xarajatlarini kamaytirgan. Agarwal va hammualliflarining tadqiqotida bunday yondashuv ayniqsa moliyaviy imkoniyati cheklangan guruhlar va uyda ishlashdan qo'shimcha moslashuvchanlik oladigan tadbirkorlar uchun sezilarli ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi [33]. Singapore tajribasi XXI asrda tadbirkorlik uyi faqat an'anaviy uy-do'kon shaklida emas, balki ruxsat etilgan, boshqariladigan va me'yoriy shartlarga moslashtirilgan home office shaklida ham rivojlanishini ko'rsatadi. Bu modelda uy ichidagi faoliyat binoning asosiy yashash vazifasini butunlay almashtirmaydi, balki turar-joy imkoniyatlari

doirasida kichik biznesga xizmat qiladi. Bunday yondashuv zamonaviy tadbirkorlik uyining muhim belgisi sifatida ish va yashash vazifalarini muvozanatda saqlash masalasini ilgari suradi [33]. Ho Chi Minh Citydagi Nguyen Thien Thuat apartment blocks misoli uyga asoslangan biznes mavjud turar-joy fondini qanday o‘zgartirishini ko‘rsatadi. Huynh Tran Buu Loc va Dinh Quoc Phuong tadqiqotida dastlab yashash uchun mo‘ljallangan kvartiralar keyinchalik do‘kon, dars berish xonasi, kichik xizmat va oilaviy biznes ehtiyojlariga moslashtirilgani tahlil qilinadi. Bunday o‘zgarishlarda eshik oldi, balkon, umumiy yo‘lak, zinapoya maydonchasi va fasad qismlari iqtisodiy faoliyat bilan bog‘langan oraliq makonlarga aylangan Rasm. 13 [35]. Bu tajriba zamonaviy home-based business faqat xonadon ichida emas, balki bino chegaralari va umumiy foydalanish qismlarida ham fazoviy iz qoldirishini ko‘rsatadi. Turar-joy binosi dastlab tadbirkorlik uchun loyihalanmagan bo‘lsa ham, foydalanuvchi ehtiyoji uning ichki tashkil etilishi va tashqi ko‘rinishiga yangi vazifalar yuklaydi. Shu jihatdan moslashuvchanlik va kundalik foydalanish jarayonida shakllanadigan arxitekturaviy holat sifatida ham talqin qilinadi [35]. Home-based businessning zamonaviy shakllari iqtisodiy modeli bo‘yicha ham bir xil emas. Kapasi va Galloway uyga asoslangan bizneslarni yagona toifa sifatida emas, balki texnologiyadan foydalanish darajasi, mijoz turi, bilim kapitali, mahsulot shakli va o‘sish maqsadlariga ko‘ra farqlanadigan sektor sifatida o‘rganishni taklif qiladi. Bu yondashuv turar-joy loyihasida turli faoliyat intensivligiga moslashadigan reja imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni talab qiladi [31]. Qishloq va shahar sharoitida uyga asoslangan tadbirkorlikning rivojlanish omillari bir xil shakllanmaydi. Galloway va Kapasi qishloq hududlarida home-based business mahalliy iqtisod, masofa, transport cheklovi, oilaviy hayot va mavjud resurslardan foydalanish bilan bog‘liq holda ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shahar muhitida esa ijara xarajatlari, xizmat ko‘rsatish tezligi, raqamli aloqa, mijozga yaqinlik va uy-joyning ichki moslashuvchanligi asosiy omillar qatoriga kiradi [32].



Rasm. 13 Nguyen Thien Thuat turar-joy majmuasida D va E bloklari oralig‘idagi ichki umumiy makon hamda kundalik ijtimoiy-faoliyat muhiti aks etgan chizma. ***Manba:*** *Huynh Tran Buu Loc va Dinh Quoc Phuong, mualliflar chizmasi, 2018.*

Xulosa. XXI asr tajribasida zamonaviy tadbirkorlik uyi yangi texnologik, iqtisodiy va me’yoriy sharoitda qayta shakllangan uy-joy turi sifatida ko‘riladi. Unda uy ichidagi mehnat jarayoni kompyuter, internet, kichik jihozlar, saqlash joyi, onlayn buyurtma, oilaviy vaqt va turar-joy qulayligi bilan birgalikda tashkil etiladi. Bu bosqichda xorijiy tajriba an’anaviy yashash va mehnat birligining zamonaviy davrda moslashuvchan, raqamli va boshqariladigan shakllarga o‘tganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adaviyotlar ro'yxati.

1. Ahmedov, M. Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi : Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir Z. Hakimova. – Toshkent : O'zbekiston nashriyoti, 1995. – 142 b. – ISBN 5-640-01616-7.
2. Воронина, В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – Москва : Государственное издательство архитектуры и строительства, 1951. – 168 с.
3. Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. Выпуск 1 : сборник статей / отв. ред. В. Л. Воронина. – Москва : Изд-во и типография Академии архитектуры СССР, 1950. – 102 с.
4. Пугаченкова, Г. А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент : Фан, 1981. – 232 с.
5. Писарчик, А. К. Народная архитектура Самарканда. – Москва : Наука, 1974. – 280 с.
6. Нильсен, В. А. У истоков современного градостроительства в Узбекистане. – Ташкент : Издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1988. – 208 с.
7. Pavlovskiy, E. N. Ocherki Samarkandskoy oblasti // Istoricheskiy Vestnik. – 1911. – Dekabr. – S. 850–870.
8. Sadiqova, S. N. Kontseptsiya vozrojdeniya sadovo-parkovogo iskusstva Temuridov v landshaftnoy arxitekture Uzbekistana : PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – 150 s.
9. Adilov, Z. O'zbekiston shaharlari landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish : Monografiya. – Toshkent : Print World, 2021. – 172 b. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.6868071.
10. Raximov, K. D. Landshaft rejalashtirish : O'quv qo'llanma. – Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. – 305 b. – ISBN 978-9943-5143-9-3.
11. Khushnazarova, M. G., Mardonova, X. A., Musayev, M. K., Tohirova, D. M. Short overview of the history of the Asian city Samarkand // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 2. – ISSN 2181-1385.
12. Aituganova, N., Vileikis, O., Babaev, S., Ausín, J. O. Traditional Bukharian Houses and Mahallas: A Shared Vernacular Heritage at Risk // International Conference on Vernacular Heritage: Culture, People and Sustainability. – Valencia, 2022. – DOI: https://doi.org/10.4995/HERITAGE2022.2022.15605.
13. Xamidova, M. S. Temuriylar davrining Movarounnahrdagi me'moriy yodgorliklari tarixi : Monografiya. – Toshkent : Nodirabegim, 2024. – 153 b.
14. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2016. – № 1.
15. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2017. – № 4.
16. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2019. – № 4.
17. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part I – Introduction and Historical Context : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2015. – 48 b.

18. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part II – Urban Structure and the Mahalla System : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2015. – 52 b.
19. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part III – Traditional Housing and Spatial Organization : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 57 b.
20. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part IV – Construction Methods and Material Culture : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 61 b.
21. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part V – Economic and Social Dynamics of the Mahalla : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 54 b.
22. Nosirov, J. Samarqand arxitektura va shaharsozligidagi madaniy o'zgarishlar 1868–1917 yillar misolida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Vol. 5, № 1. – B. 153–158.
23. Holliss, F. Beyond Live/Work: The Architecture of Home-Based Work. – London ; New York : Routledge, 2015.
24. Sayers, J. Home Based Business // Encyclopaedia of New Venture Management / ed. M. R. Marvel. – London : Sage, 2012.
25. Kapasi, I., Galloway, L. Home-based Businesses: An Exploration of Business Model Heterogeneity // Journal of Business Models. – 2018. – Vol. 6, № 3. – P. 63–78.
26. Mason, C., Carter, S., Tagg, S. Invisible Businesses: The Characteristics of Home-Based Businesses in the United Kingdom. – Glasgow : University of Strathclyde, Hunter Centre for Entrepreneurship, Working Paper WP08-01, 2008.
27. Galloway, L., Kapasi, I. Rural Home-Based Businesses and Their Contribution to Rural Lives: An Exploratory Study. – Edinburgh : Heriot-Watt University, 2014.
28. Reuschke, D., Domecka, M. Policy Brief on Home-Based Businesses. OECD SME and Entrepreneurship Papers, № 11. – Paris : OECD Publishing, 2018.
29. Reuschke, D., Mason, C. The Engagement of Home-Based Businesses in the Digital Economy // Futures. – 2022. – Vol. 135. – Article 102542.
30. Huynh Tran Buu Loc, Dinh Quoc Phuong. Changes to Domestic Spaces and Home-Based Business in Ho Chi Minh City: A Case Study of Nguyen Thien Thuat Apartment Blocks // Home Cultures. – 2024. – Vol. 21, № 1. – P. 43–68. – DOI: 10.1080/17406315.2024.2347705.
31. Ayo-Odifiri, S. O., Emeana, R. C., Musa, A. W., Ukpabi, I. J., Ukah, O. T. An Investigation of Home-Based Businesses in Low-Income Residential Settlements of Owerri Urban, Nigeria // IOSR Journal of Humanities and Social Science. – 2022. – Vol. 27, Issue 1, Series 7. – P. 29–39.

32. Agarwal, S., Sing, T. F., Song, C., Zhan, J. Liberalizing Home-Based Business // Management Science. – 2024. – Vol. 70, № 12. – P. 8301–8321. – DOI: 10.1287/mnsc.2021.04232.
33. Schutjens, V., Mackloet, A., Korteweg, P. J. Home-Based Business: Exploring the Place Attachment of Entrepreneurs : paper presented at the ERSA Conference. – Volos, Greece, August 30 – September 3, 2006.
34. Chen, D. The Flexible Housing System in China and Home Working During the Covid-19 Pandemic and Beyond : Master Thesis. – Turin : Politecnico di Torino, Department of Architecture and Design, 2021.
35. Moughtin, C. Urban Design: Street and Square. 3rd ed. – Oxford : Architectural Press, 2003.